

JIHOZLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH TIZIMLARI

Tadjikuziyev Raxmatjan Maxamadovich

Mashinasozlik texnologiyasi va avtomatlashtirish kafedrası, Katta

o'qituvchisi, Farg'ona davlat texnika universiteti,

E-mail: rahmatjontadjikuziev@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada dastgoxlarni takomillashtirish, montaj qilish, nazorat va asosiy qurilmalarini avtomatik boshqarish, jumladan raqamli dasturlarda va mikroprotssessorlarda boshqarish tizimlari joriy qilish, sanoat robotlaridan unumli foydalanish va ularning aniqligi, maxsuldorligini oshirish usullarini o'rgatishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *sanoat, zamonaviy usullar, montaj qilish, avtomatik boshqarish, texnika, taraqqiyot, korxonalar, ilmiy-innovatsiyon yondashuv, loyixalash, ekspluatatsiya, rejalashtirish asoslari.*

Xozirgi davrga yangi shakllangan sanoat korxonalari sohalari turlariga qarab mashinasozlikning 1990 yillardan buyon ishlab chiqarilgan dastgox, mexanizmlar, yig'ma brikmalar, texnologik jihozlar va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan priborlar, asbob-uskunalar bilan bir qatorda hozirda import asosida keltirilgan texnologik jihozlar, dastgoxlar, avtomat liniyalar, konveerlar, robot texnikalari va tandem tizimlari bilan xam boyitilib borilmoqda. Shakllanayotgan korxonalar asosiy vazifalaridan – qisqa fursatlarda maksimal foyda olish uchun – ilgari qo'llab kelinayotgan texnika va texnologiyalardan ratsional foydalanish va vaqt meyorlarini to'g'ri taqsimlanishi, takomillashtirilishini yo'lga qo'yish maqsadida jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha tavsifi ishlab chiqiladi.

Hozirgi vaqtda qolgan resurslarni hisoblashda qiyinchiliklar ko'pincha matematik modellar usulidan foydalangan holda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ob'ektiv ma'lumotlarning etishmasligi tufayli aniq tavsif berilmaydi. Bunday holda, uskunaning qoldiq resursi bo'yicha xulosa ekspert so'rovini o'tkazish yo'li bilan malakali mutaxassislarning fikrlarini hisobga olish bilan tavsif qabul qilinadi.

Korxonada jihozlar resurslarini ekspert baholash uchun ishchi guruh tuziladi. Ishchi guruh tarkibiga bevosita ijrochilardan tashqari BMB va BEB texnik xodimlarini, katta mexaniklarni, ushbu uskunani ishlatish va ta'mirlash bo'yicha kamida besh yil ish tajribasiga ega bo'lgan sexlarning mexaniklarini (ustalarini)

tavsiya etiladi. Ishchi guruh tarkibiga vakolatli ekspertlar baholarini xolisligini ta'minlash maqsadida, shuningdek ishchi guruhning yakuniy qaroriga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik uchun, ushbu jihozlar foydalaniladigan va jihozlar ishlab chiqaradigan korxona mutaxassislari, sexlar, bo'limlar, xizmatlar va boshqa rahbarlari guruxga kiritilmasligi kerak.

O'ztexnazorat organlarida ro'yxatga olingan qurilmalar, qoidalarda nazarga tutilgan hollar bundan mustasno bo'lgan, ochiq ishlab chiqarish maydonchalarida yoki alohida binolarda o'rnatilishi kerak. Ushbu qurilmalar barqaror va ichki va tashqi tomondan tekshirishi, ta'mirlash va tozalash uchun qulay bo'lishi kerak. Bosim ostida ishlaydigan asboblarning muhitning bosimi va haroratini o'lchash asboblari, xavfsizlik moslamalari va suyuqlik darajasi ko'rsatkichlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Zarur hollarda, issiqlik oqimlarini nazorat qilish uchun jihoz devorlarining harorati uning uzunligi bo'ylab o'lchanadi. Qurilma va xavfsizlik klapanlari o'rtasida zapor armaturalari o'rnatilmaydi. Agar qurilma ikkita klapaniga ega bo'lsa, u holda klapanlar va qurilma o'rtasida uch yo'nalashli kran o'rnatilishi mumkin.

Jihozni ta'mirlashga tayyorlash tartibi, yo'riqnomalarda belgilangan talablar asosida uni to'xtatish, quvvatsizlantirish, mahsulotdan ozod qilinishi, ifloslantiruvchi moddalar va loydan tozalash, atrof-muhit tarkibini zararsizlantirish, kommunikatsiya tarmoqlaridan uzish lozim. Barcha tayyorgarlik ishlari ob'ekt yoki uchastka rahbarining nazorati ostida jarayon xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Asosan zaglushkalarini o'rnatish ayniqsa nazorat ostiga olinishi lozim. Maxsus jurnalda har bir zaglushkalarini o'rnatish sanasi, vaqti va joyi, uning raqami, olib tashlash vaqti, shuningdek, ijrochining familiyasi qayd etib boriladi.

Jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish jarayonida xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Xususan, jihozlarning germetikligi va bosim bardoshlilikligi sinovdan o'tkazilishi, shuningdek, zaharli yoki portlovchi moddalar bilan ishlaydigan qurilmalar uchun maxsus xavfsizlik choralari ko'rilishi shart. Payvandlash ishlari faqat malakali xodimlar tomonidan xavfsizlik talablari asosida amalga oshirilishi kerak. Ta'mirlash jarayonida barcha jihozlar to'liq quvvatdan uzilgan va xavfli moddalar bo'shatilgan holatda bo'lishi zarur. Ichki ishlarni bajarishda faqat tibbiy ko'rikdan o'tgan va tegishli malakaga ega shaxslar jalb qilinishi mumkin.

ADABIYOTLAR

[1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal,3(05),1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men's clothing. Innovative Technological:Methodical Research Journal,2(10),15-20.

[5]. Tadjikuziev R., Rubidinov S., Mamatqulova S. Advancements in energy-efficient welding production techniques: Innovative models and methods for combined workpiece fabrication //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 583. – C. 05005.

[6]. Saida Mamatkulova, Shakhlo Tursumatova, Makhmudjon Turdiyev, Manzura Abdurakhimova, Makhmudjon Abdullayev, Rano Berdiyeva Research of materials for clothing in the production of various sewing products //E3S Web of Conferences. - EDP Sciences 538, 04003 (2024)

[7]. Saida Mamatkulova, Gulhayo Mirbobayeva1, Mavjudaxon Ulug`boboyeva, Nosirjon Yakubov, Barno Nizamova, Xilola Tursunova. Importance of design in dresses // E3S Web of Conferences 538, 04001 (2024)

[8]. Saida Mamatkulova, Rano Berdyeva, Irodakhon Obidova, Maftuna Khoshimova, Malohat Rakhmonova, Bekzod Mominov. The significance of creating embroidery patterns from art decoration techniques in the field of sewing – knitting//E3S Web of Conferences 538, 04002 (2024).